

Oy – Yerning yo‘ldoshi


Oy – Yerning yagona tabiiy yo‘ldoshi. Yo‘ldosh – bu kattaroq jism atrofida harakatlanadigan samoviy jism.



Oy – bu Yer atrofida aylanadigan katta dumaloq jism. Biz tunda Oyni osmondagi katta yorqin nuqta sifatida ko‘ramiz va u koinotdagi eng yaqin qo‘shnimizdir.

Yer Oyni o‘ziga tortadi. Yer Quyosh atrofida aylangani kabi Oy ham Yer atrofida aylanadi.

Oy yorug‘lik manbayi emas. Bizningcha, Oy tunda yorqin sariq rangda porlayotgandek tuyuladi. Ammo Oy, xuddi oyna kabi, faqat quyosh nurini aks ettiradi. Shuning uchun biz yorug‘lik tushayotgan boshqa narsalarni qanday ko‘rsak, Oyni ham shunday ko‘ramiz. Biz har doim Oy sirtining faqat quyosh nurlari bilan yoritilgan qisminigina ko‘rishimiz mumkin.





Rasmlarga qarab aniqlang.

1. Yerning quyosh nurlari tushadigan tomonida kunning qaysi vaqti?
2. Yerning quyosh nurlari tushmaydigan tomonida kunning qaysi vaqti?
3. Quyosh nurlari yana qayerga tushadi?
4. Yerning qaysi yarmidagi aholi Oyni ko'ra oladi?



Bizningcha, Oy doimo o'z shaklini o'zgartirayotgandek tuyuladi. Buning sababi shundaki, Quyosh turli vaqtlarda Oyni turlicha yoritadi. Quyosh nurlari to'g'ridan to'g'ri Oyga tushganda, Oy bizga dumaloq bo'lib ko'rinadi. Oyni bu holati **To'lin Oy** deb ataladi. Quyosh nurlari Oyga yon tomondan tushsa, uning faqat bir qismini yoritadi va u bizga ingichka o'roq shaklida ko'rinadi. Bunday Oy **Yarim Oy** deb ataladi.

Shunday bo'ladiki, Oy osmonda umuman ko'rinmaydi. Bu **Yangi Oy** kirganligini bildiradi. Bu holat har 29 sutkada sodir bo'ladi.

Oy fazalari – bu Oyni Yer atrofida aylanish jarayonida ko'rinishidagi o'zgarishlar.

Yangi Oy	O'sayotgan yarim Oy	To'lin Oy	Kamayib borayotgan yarim Oy

Astronomiya – bu osmon jismlari haqidagi fan.

Oy Yerdan 4 marta kichik va 81 marta yengilroq. Oyda havo yo'q, shuning uchun odam maxsus skafandrsiz u yerda nafas ololmaydi.

1969-yilda amerikalik astronautlar Nil Armstrong va Edvin Oldrin Oy yuzasiga qadam qo'ygan birinchi odamlar bo'ldi.



Tajriba o'tkazing.

Uxlashdan oldin ota-onangizdan siz bilan sayr qilishlarini so'rang yoki o'zingiz derazadan tashqariga qarang. Tungi osmonda Oyni toping va uning shaklini daftaringizga chizing. U qaysi bosqichda ekanligini: o'sib borayotganini yoki kamayib borayotganini aniqlang.

Ma'lumotlarni quyidagicha jadvalga kiriting. Bir oy mobaynida kuzatishda davom eting.

Sana	Oy fazasi	
2023-yil 1-oktabr		O'sib boruvchi



1. Oy yorug'lik manbayimi?
2. Oyning fazalarini sanab bering.
3. Nima uchun olimlar Oyni o'rganishadi? Bu ularga qanday savollariga javob topishda yordam beradi?
4. Oy haqidagi qanday qiziqarli faktlar sizni hayratda qoldirdi yoki ko'proq qiziqitirdi?